

**CHEZ TILI FANLARINI O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA  
O'QITISHNING INNAVATSION MATODLARIDAN FOYDALANISH.**

*Ulug'berdiyeva Sevara Bahodir qizi*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Pedagogika ta'lif yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

*Shomurotov Ulugbek Melikboboyevich*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*o'qituvchisi u.shomurotov@dtpi.uz*

+998915107420

**Annotasiya.** Ushbu maqolada chet tili fanlarini umumiy o'rta ta'lif maktablariga innavatsion metodlarini taqbiq etish va samarali foydalanish haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar.** Innovatsion metod, interaktiv o'yinlar, ta'lif metodi, ta'lif usuli.

**Аннотация.** В данной статье говорится о внедрении и эффективном использовании инновационных методов изучения иностранного языка в общеобразовательных школах.

**Ключевые слова.** Инновационный метод, интерактивные игры, образовательный метод, образовательный метод.

**Annotation.** This article talks about the implementation and effective use of innovative methods of foreign language subjects in general secondary schools.

**Key words.** Innovative method, interactive games, educational method, educational method.

**Kirish.** Ma'lumki,yoshlarning puxtz bilim olishi va zamonaviy fan sohalari bo'yicha chuqur bilim egallash birinchi navbatda samarali bilim olishga bo'liq.Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining joriy qilinishi uzlusiz ma'naviy tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishiga, tarbiya sohasining ilg'or innavatsion texnologiyalar asosida takomillashuviga, yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik,irodalilik, mafkuraviy immunitet,mehr – oqibatlilik, mas'uliyatlilik,bag'ri kenglik,huquqiy ma'daniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik, kabi tayanch kompetensiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart- sharoitlar yaratiladi. Shunday ekan yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish usullaridan foydalanishni o'quvchilarga tushuntirish.Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki,ular o'qituvchi va o'quvchilarning birlgiligidagi faoliyati orqali amalga oshiriladi.o'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi.O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish

va e'tiqodini shakjyllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchiga chinakam ehtiros bo'ladi.

**Asosiy qism.** Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogic va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan- kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallahsga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchanlik funksiyalarini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovatsiya inglizcha innovation ( yangilik kiritish, yangilikdir).

Innovatsion texanologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalilaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-o'quvchilarning birgalikdagi faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bu pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quydagilar kiradi.

-O'qituvchi-o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

-O'qituvchi-o'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;

- O'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirish;

-Pedagog va o'quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muommolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy- tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanilishi zarur bo'lgan TSO kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalananish deb belgilanadi. O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishish uchun balkim kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film,

tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'ladi, bular albatta o'qituvchiga va o'quvchiga bog'liq bo'ladi.

Ta'lismetodi tushunchasi anchagina murakkab .Shu pedagogikada uning toboro aniq talqini xususida munozara haligacha davom etmoqda.Biroq bu tushunchaga beriladigan didaktarning turli ta'riflariga qaramay, ularning nuqtai nazarlarini yqinlashtiradigan qandaydir umumiylilikni ham ta'kidlash mumkin.Ko'pchillik mualliflar ta'lismetodini o'quvchilarining o'quv bilish faoliyatini tashkil etish usuli, deb hisoblashga moyildir.Ta'lismetodlari deyilganda, o'rganilyotgan materialni egallahsha qaratilgan turli didkatik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig'indisi tushuniladi.

Ta'lismetodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar bilan usullar munosabati o'zaro bir-biriga bog'lanadi.Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi.<sup>2</sup>

Biz chet tilini o'qitish bo'yicha fikrlash, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatish bo'yicha bir qancha metodlarni ko'rib chiqamiz.

**Kubiklar usuli** metodi. Kubiklar o'zgartirilayotgan kelajakka asoslanib mavzuni ko'rib chiqishga yordam beradigan o'qitish usulidir.Har tomonlama fikrlashga ( yozishga)yordam beradigan har xil yo'l- yo'riqlar yozilgan kubik ishlataladi.Tomonlarining hajmi o'rtacha 15-20 sm bo'lgan qutichaga qig'oz yopishtirib, kubik yasash mumkin.Kubikning har bir tomoniga quydag'i oltita yo'l- yo'riq yoziladi:buni tasvirlang,buni taqqoslang, buni o'zaro taqqoslanishini ko'rsating,buni tahlil qiling,buni qo'llang, yaxshi va yomon tomonlarini ko'rsating ( dalillar yordamida).O'tiladigan mavzu yoki biror tushsuncha shu jadval savollari asosida tahlil qilib chiqiladi.

**Ikki qismli kundalik** metodi.Bu usulda ham matn bilan ishslash jarayonida foydalanish mumkin. Bu usul birinchidan, mavzu matnini chuqr tushinishga yordam bersa, ikkinchidan, o'quvchilarining ijodiy tafakkurga undaydi, ularning mustaqil fikr yuritishlariga yordam beradi va ilmiy tushunchalarni o'zalashtirish uchun ham foydali.Berilgan matn o'qin chiqilgan so'ng daftar varog'i ikki qismga bo'linadi:

### PARCHA SHARH

Chap tomondag'i "parcha" deb yozilgan qismga o'quvchilar matn yuzasidan biror parcha yoki ularga qattiq ta'sir qilgan narsa yoki ularni haqiqatda hayron qoldirgan timsol haqida ilmiy terminlardan foydalanib yozishlari kerak.Ehtimol, bu ularga shaxsiy tajribalardan nimanidir eslatgandir, balki ularni qiziqtirgan yoki ularni o'ylantirib qo'ygandir.Balki, ular bu fikrga narsaga qo'shilmaslar. Balki,bu narsa o'quvchi uchun yangilikdir. Balki shu narsa mohiyatini tushunib yetmagandir.

Varaqning "Sharx"deb yozilgan o'ng tomoniga chap tomonidagi tanlangan parcha ( yoki parchalar)sharh yoziladi.Bunda nima uchun ushbu parchani tanlab olganligi, bu

narsa uni nima haqida o'ylashga majbur etganligi, shu munosabat bilan unda qanday fikrlar tug'ulganligi haqida sharh beriladi.

**Insert usuli** metodi. Insert usuli tushunishni kuzatish vositasidir. Inset- bu o'quv jarayonida o'z anglashini faol kuzatish uchun o'quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o'qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin. Bu esa odam nima o'qiyotganini tushunmay, o'qish jarayonida faol bo'lishga qatnashmaydigan va o'z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir. Inset- bu matn bilan ishlaganda faollikni qo'llab-quvvatlash uchun kuchli vositadir.

O'quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo'yib boradi, ular esa quyidagi ma'nolarni bildiradi.

V-bilganlarimni tasdiqlaydi.

+ - yangi axborot.

-Bilganlarimga zid keladi

?- meni o'ylantirib qo'ydi.

**Xulosa.** Zamonaviy ta'limning mohiyatini ochib berish, pedagog faoliyatini keng qamrovli yoritish. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy mahurat va darsga ijodiy yondashib, unda yangi shakl, usullarni samarali qo'llash. Chet tili fanlarini o'qitishda o'quvchilarning faolligini oshirish, ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, o'quvchilarda erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish kerak bo'ladi. Interfaol usullar orqali chet tili fanlar ta'limining smaradorligi oshadi, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlik, o'quvchilarga erkin ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlanadi va shakllanadi. Bu innovation yondashuvda o'quvchi shaxsi ta'limda markaziy figuraga aylanadi. O'zi umuman olganda O'qitishda noan'anaviy shakllar interfaol usullarni 3 guruhga ajratish mumkin: O'qitishda hamkorlik, modellashtirish, o'rganishning tadqiqot metodi. Bu chrt tili fanlarini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanishda avvalo o'sha chet tili matnlarini tushunib olishga uning ma'no mazmunini anglashga va keying o'rinda eslab qolish darajasi past o'quvchilarga eslab qolish uchun muhim bo'lgan metodlar bilan olib borsa juda yaxshi samara beradi. Bu eslab qolishning eng yaxshi va oson metod deb oladigan bo'lsak, bu tez-tez takrorlashdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bekmurodov U.B."Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" Toshkent 2022-yil.
2. B.X.Xodjayev "Umumiy pedagogika nazaryasi va amaliyoti" Toshkent 2017-yil.
3. Ta'lim to'g'risidagi qonun 2020-yil 23-sentabr.